| Axmedova Nafisa Amriddin qizi | |



| | |
|--|------|
| Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish..... | 962 |
| Ruziyeva Shaxlo Raupovna | |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari | 968 |
| Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant | |
| Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar | 972 |
| Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD | |
| Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish | 978 |
| Latipova Shaxnoza Maxmudovna | |
| Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida)..... | 983 |
| Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna | |
| Пути организации инновационных процессов в Узбекистане | 988 |
| Насиров Дилшод Фарходович | |
| Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе..... | 992 |
| Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр | |
| Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari | 1000 |
| Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li | |
| Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari | 1005 |
| Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li | |
| Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati..... | 1010 |
| Vasiyev Alisher Samiyevich | |
| O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili | 1014 |
| Hakimjon Hakimov | |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari | 1019 |
| Umurzoqova Adiba Ochilovna | |
| Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish | 1024 |
| Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili..... | 1028 |
| Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) | |
| Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari | 1033 |
| Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD | |
| Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modelashtirish..... | 1041 |
| Artikov Ne'matulla Abdusalamovich | |
| O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar | 1046 |
| Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant | |
| Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari..... | 1052 |
| Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori | |
| Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari | 1058 |
| Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi | |
| O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi | 1064 |
| Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi | |
| Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы | 1070 |
| Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент | |
| Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции | 1075 |
| Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры | |
| Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili | 1081 |
| Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li | |
| Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni..... | 1086 |
| Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich | |
| To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi..... | 1091 |
| Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) | |
| Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati..... | 1095 |
| Ibodullayev Abror Axrorovich , dotsent, Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li , Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li , talabalar | |
| The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health | 1100 |
| Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilkhom Ravshanovich | |



| | |
|--|------|
| Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан | 1104 |
| Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры | |
| Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices | 1109 |
| Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc | |
| Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri | 1117 |
| Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD | |
| Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish..... | 1122 |
| Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD | |
| Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti..... | 1128 |
| Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li , tayanch doktorant | |
| Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlarlari | 1135 |
| Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant | |
| Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba..... | 1142 |
| Xolikov Sarvar Xayitbayevich | |
| Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta portfeli muvozanatida andarrayting xizmati | 1147 |
| Sayfullo Mirzoyev , mustaqil izlanuvchi | |
| O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari..... | 1153 |
| Baymuradov Shoxrux Maxmudovich , PhD | |
| Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli..... | 1158 |
| Eshmirzayev Faruddin Iloxjonovich , tayanch doktorant, Salimova Zaxro Sobirjon qizi , magistr | |
| Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili..... | 1164 |
| Xasanova Nasiba Nazar qizi , tadqiqotchi | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi | 1170 |
| Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi | |
| Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы..... | 1176 |
| Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна | |
| Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xalqaro kapital bozori dan moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotining tahlili | 1179 |
| Muydinov Shohruh Najmiddin o'g'li , mustaqil izlanuvchi | |
| O'zbekistonda o'zini o'zi band qilishda xorijiy tajribalar va ulardan mamlakatimizda foydalanish masalalari... | 1186 |
| Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li , tayanch doktorant | |



O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH MASALALARI

Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada xorijiy davlatlarda aholining o'zini o'zi band qilishdagi ko'rsatkichlar, ulardagi ayrim cheklov va qulayliklar ko'rib chiqildi. O'zbekiston sharoitida o'zini o'zi band qilishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari, ushbu faoliyat turlari bilan aholi qamrovining tahlili va olingan natijalar orqali xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi band qilish, xorijiy tajriba, innovatsion faoliyat, bandlik, kambag'allik, internet, onlayn faoliyat.

Abstract: In the article, indicators of self-employment of the population in foreign countries, some of their limitations and facilities were considered. The types of activities that can be self-employed in the conditions of Uzbekistan, the analysis of the coverage of the population with these types of activities, and conclusions and proposals were developed through the obtained results.

Key words: self-employment, foreign experience, innovative activity, employment, poverty, Internet, online activity.

Аннотация: В статье рассмотрены показатели самозанятости населения в зарубежных странах, некоторые их ограничения и возможности. На основе полученных результатов разработаны виды деятельности, которыми можно заниматься самозанятым в условиях Узбекистана, проведен анализ охвата населения этими видами деятельности, а также сделаны выводы и предложения.

Ключевые слова: самозанятость, зарубежный опыт, инновационная деятельность, занятость, бедность, Интернет, онлайн-активность.

KIRISH

Jahonda kundan-kunga o'zgarishlar rivojlanish sur'atlarining oshib borishi, iqtisodiyotdagi o'zgarishlar nafaqat bugungi kunda butun dunyo davlatlarini, qolaversa, O'zbekistonda aholini yashash sharoitlarini yaxshilashga hamda ularning bandlik va daromadlarini oshirishga qaratilgan ta'sirchan choralarni joriy qilishga harakatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda jahonning ko'plab rivojlangan davlatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak unda iqtisodiyotda band bo'lganlarning katta qismi xizmatlar sohasiga, hamda o'zini o'zi band qilish orqali daromad qilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbekistonda ham xizmatlar sohasi rivojlanib kelmoqda hamda fuqarolarning o'zini o'zi bandligini ta'minlashda davlat tomonidan mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha Farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qarori ^[1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi" ^[2] nizomni tasdiqlash haqida" 806-son qarori ishlarni amalga oshirish maqsadida aholini o'zini o'zi band qilishga ko'plab imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

O'zini o'zi band qilish bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda hamda OAVda tez-tez guvohi bo'lishimiz mumkin. O'zini o'zi band qilish o'zi nima? U qachon paydo bo'ldi? Ushbu sohaning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat? Rivojlangan davlatlarda o'zini o'zi band qilishda yaratilgan sharoitlar va erishilgan natijalar qanday? Mana shu yuqorida keltirilgan savollarga ilmiy assoslar bilan javob topishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bugungi kunda mamlakatimizda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi III-yo'nalishi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan, hamda VI. yo'nalishi milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish bo'limining 85-maqsvadi: Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" ^[3-191-272-b] masalalari qo'yilgan. Bulardan ham ko'rinib turibdiki, mazkur sohani rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan obyektiv zaruriyat ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.



Ma'lumki, O'zbekiston dunyo hamjamiyati davlatlari o'rtasida aholisining jadal o'sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Bunday vaziyat o'z navbatida aholining ish bilan bandligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, buning uchun esa, xizmatlar sohasi va ishlab chiqarishda innovatsiyalarni qo'llash va kengaytirish, aholini zamonaviy kasblarga o'qitish va o'rgatish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida uzluksiz ish olib borishni taqozo etadi. Aks holda aholining turmush darajasining pasayib borishi, mamlakatda ishsizlar sonining ortib borishi, qolaversa, kambag'allikning aholi orqasida oshib borish bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida mehnat bozori va mehnat bozorida vujudga keladigan muammolarga jiddiy qarab aholi bandligiga va jamiyat rivojiga qaratilgan bir qancha muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Bularni mavzuga oid adabiyotlar tahlilida ham ko'rish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda «o'zini o'zi ish bilan ta'minlash» tushunchasi keng tarqalmoqda. O'zini o'zi ish bilan ta'minlash mualliflar tomonidan bozorni barqarorlashtirish mehnat omili sifatida qaraladi ^[4], inqiroz davrida ishsizlikni kamaytirish vositasi ^[5], bandlik sektoridagi pensiya yoshidagi fuqarolar ^[6] va yosh bitiruvchilar orasida o'zini o'zi band qilish talabining oshishi ^[7], aholining inqirozli davri shakl sifatida mehnat va yashash sharoitlarini hal qilish ^[8], degan yondoshuvlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zini o'zi ish bilan ta'minlashning paydo bo'lishiga oid aniq sanasini aniqlash qiyin, chunki u asrlar davomida insoniyat tarixining bir qismi bo'lib kelgan. Rasmiy mehnat munosabatlari va ish haqi mehnatining paydo bo'lishidan oldin odamlar ko'pincha o'zlari uchun dehqon, hunarmand, savdogar yoki boshqa turli kasblarda ishladilar. Rim imperiyasi yoki qadimgi Misr kabi qadimiy sivilizatsiyalarda o'zini o'zi ish bilan ta'minlash keng tarqalgan yedi. Biroq, o'zini o'zi ish bilan ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi, bugungi kunda mavjud bo'lganidek, XVIII-XIX asrlarda sanoatlashtirish va kapitalizmning o'sishi bilan yanada mashhur bo'ldi. Sanoat inqilobidan oldin ham ko'pchilik odamlar odatda feodal tuzumda hunarmand yoki dehqon bo'lib ishlagan. Ular asosan yer egalari tomonidan ishlatilgan yoki o'z yerlarida ishlashgan. Biroq, sanoatlashtirishning paydo bo'lishi bilan bandlik shakllarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Sanoatlashtirish rivojlanib, yirik fabrikalar va korporatsiyalar paydo bo'lishi bilan ayrim sohalarida o'zini o'zi ish bilan ta'minlash kamroq tarqaldi, ammo u turli sanoat va kasblarda davom yetdi. Binobarin, hamma ham yangi sanoat iqtisodiyotiga moslasha olmadi. Ba'zi shaxslar maxsus ko'nikmalarga ega bo'lgan yoki zavod tizimiga bo'ysunishdan ko'ra mustaqil ishlashni afzal ko'rishgan. Ko'pincha o'zini o'zi boshqaruvchi yoki tadbirkor deb ataladigan bu shaxslar o'z bizneslarini yo'lga qo'yдилar va o'zini o'zi ish bilan ta'minladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda mantiqiy va iqtisodiy tahlil, ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish, makon va zamon, tizimli yondoshuv kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, Amerika Qo'shma Shtatlarida (AQSH) o'zini o'zi band qilish masalasi, ayniqsa, XIX-asrning oxirida keng tarqalgan edi, chunki mamlakat tez sanoatlashuv va urbanizatsiyani boshdan kechirdi. Jismoniy shaxslar turli sohalarida, jumladan, chakana savdo, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida tadbirkorlik faoliyatini boshladilar. Misol uchun, muhojirlar (immigrantlar) ko'pincha o'z jamoalariga xizmat ko'rsatish uchun o'zini o'zi band qilgan holda kichik do'konlar yoki restoranlar ochganlar ^[9].

XX-asr boshlarida transport va aloqa rivojlanishi bilan mustaqil ish bilan shug'ullanish yanada kengaydi. Masalan, mashinada tashish xizmatlari (Taxi), mustaqil yozuvchilar va mustaqil pudratchilar ko'proq mashhur bo'ldi.

M.R.Samitov ilmiy ishida ^[10] Rossiya Federatsiyasida o'zini o'zi band qilganlarga davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar va qonunchilikdagi ba'zi cheklolar haqida o'z fikr mulohazalarini bildirgan. Unga ko'ra o'zini o'zi band qilgan shaxs bir yil davomida 2 500 000 million rubldan ortiq daromat qilishi mumkin emasligi agarda ushbu summadan ortgan taqdirda jismoniy shaxsni o'zini o'zi band qilish ro'yxatidan chiqariladi hamda ortirilgan daromadlar soliq stavkalarida qaytadan hisoblanadi.

V.S.Skrug o'zining "Vozmojnosti i problemi legalizatsii samozanyatix v usloviyax sifrovoy ekonomiki" ^[11] nomli ilmiy ishida Rossiya Federatsiyasida 2017-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davr mobaynida aholining o'zini o'zi band qilishga bo'lgan qiziqishlarini o'rganib chiqqani, internet orqali insonlar ushbu sohaga yaratilgan sharoitlarni qanchalik habardor bo'lib borayotgani va maxsus dasturlar orqali eng ko'p qidirilgan savollar va faoliyat turlari haqida ma'lumotlar taqdim etganini ko'rish mumkin.

J.T.Xishauyeva ilmiy ishida ^[12] qo'shni Qozog'iston davlatida 2015-2019-yillar davrida umumiy band aholining 25% ni aynan o'zini o'zi band qilganlar tashkil etishi hamda Qozog'istonda amalga oshirilgan "S diplomom



v selo!" va "Molodejnaya praktika" dasturi orqali ishsiz yoshlarning 2015-2019-uslub davr oralig'ida 4,4% dan 3,7% ga kamaishiga yordam berilgani keltirib o'tilgan.

O'zbekiston olimlaridan bu borada M.Q.Pardayev, Obid Pardayev, O.Pardayevalarning tavsiyalari muhim ahamiyatga ega ^[13]. Qayd etish joizki, keyingi yillarda O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni liberallashtirish, integratsion jarayonlarni jadallashtirishga qaratilgan tadbirlar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi qilinayotgan ishlarning davlat makroiqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirilganligi innovatsion jarayonlarni va kambag'allikni qisqartirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tadbirlardan biri o'zini o'zi band qilish bilan bog'liq. Bu ish birda yaqinda boshlangan bo'lsa, ko'pgina davlatlar ushbu ish bilan uzoq yillardan buyon shug'ullanib kelmoqdalar. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval: 2000-yildan 2023-yilgacha dunyoning turli mamlakatlaridagi o'zini o'zi band qilganlar soni, ming kishi¹


| Davlat nomi | 2000-yil | 2005-yil | 2010-yil | 2015-yil | 2023-yil | 2023/2000 % |
|-----------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-------------|
| Hindiston | 317 074,8 | 357 660,2 | 362 786,6 | 353 837,4 | 360 237,5 | 13,6 |
| Xitoy | 452 018,3 | 431 834,3 | 406 913,7 | 379 939,9 | 355 328,5 | -21,4 |
| Afrika | 208 738,5 | 239 229,5 | 266 676,7 | 293 379,4 | 332 963,9 | 59,5 |
| AQSh | 10 639,3 | 10 762,8 | 9 979,1 | 9 810,4 | 9 880,8 | -7,1 |
| Turkiya | 9 376,4 | 8 411,3 | 8 809,6 | 8 784,7 | 9 091,7 | -3,0 |
| Yaponiya | 10 960,7 | 9 707,8 | 8 057,6 | 7 139,3 | 6 750,6 | -38,4 |
| Italiya | 5 834,6 | 6 060,8 | 5 670,6 | 5 472,8 | 5 365,6 | -8,0 |
| Buyuk Britaniya | 3 397,0 | 3 780,1 | 4 178,7 | 4 805,5 | 5 040,8 | 48,4 |
| Rossiya | 7 287,7 | 6 123,5 | 4 773,4 | 5 130,3 | 4 723,3 | -35,2 |
| Germaniya | 3 990,6 | 4 484,0 | 4 469,7 | 4373,7 | 4 157,4 | 4,2 |
| Polsha | 3 999,9 | 3 733,1 | 3 772,9 | 3 601,6 | 3 491,6 | -12,7 |
| Fransiya | 2 786,9 | 2 846,7 | 3 094,5 | 3 116,5 | 3 229,6 | 15,9 |
| Kanada | 2 425,6 | 2 569,4 | 2 760,9 | 2 842,8 | 2 968,1 | 22,4 |
| Ukraina | 3 841,1 | 3 817,6 | 3 758,4 | 3 016,4 | 2 821,6 | -26,5 |
| Gollandiya | 890,0 | 1 082,3 | 1 271,2 | 1 416,9 | 1 469,3 | 65,1 |
| Belgiya | 663,1 | 547,9 | 646,2 | 695,5 | 673,0 | 1,5 |
| Shvetsiya | 473,6 | 468,1 | 495,3 | 490,6 | 478,1 | 1,0 |
| Daniya | 249,6 | 245,4 | 247,1 | 238,2 | 229,4 | -8,1 |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, dunyoning rivojlangan ko'plab mamlakatlaridagi aholining o'zini o'zi band qilganlar soni ba'zi davlatlarda o'sish suratlari mavjud bo'lsa ayrimlarida avvalgi yillarga nisbatan pasayish sodir bo'lgan.

Yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozimki, aholi o'zini o'zi ish bilan ta'minlangan taqdirda ham uning oladigan maoshlarining miqdori birlamchi ehtiyojlarini qondiradimi yoki yo'qmi, degan savoga aniq javob bo'lishi lozim. Bundan ko'rinib turibdiki, kambag'allikni qisqartirish uchun agar oladigan daromadi yetarli bo'lmasa faqat ish bilan ta'minlashning o'zigina yetarlik emas ekan. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: «Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissiini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak» ^[14]. Shu yo'l bilan aholini kambag'allik darajasidan yuqoriroq daromad olishga erishtirish mumkin.

Mamlakatimizda o'zini o'zi band qiladigan mehnatning turlari yildan-yilga ortib bormoqda. Buni quyidagi rasmda ko'rish mumkin (1-rasm).


1 <https://www.ilo.org/Search5/search.do?searchWhat=Number+of+selfemployed+people+in+different+countries+of+the+world&navigators=languagesnavigator%1dlanguage%1den%1den&sortBy=default&lastDay=0&collection=&offset=0>



1-rasm: O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan aholining 2020-2023-yillardagi o'zgarish sur'atining grafigi²

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish 2020-yildan boshlangan bo'lib dastlab undagi faoliyatlar turi 27 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda kasblar soni 67 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu islohotlar davom ettirilgan holda 2022-yilda 67 tadan 78 taga va hozirgi 2023-yilda o'zini o'zi band qilish bo'yicha faoliyatlar turi 101 tani tashkil etadi ^[15].

Mamlakatimizda o'zini o'zi band qilinadigan mehnatning turi bilan birgalikda shu sohada band bo'lgan aholining soni ham ortib bormoqda. Endi e'tiborimizni ushbu sohada qancha inson qamrab olingani va yaratib berilayotgan sharoitlar hisobiga aholining qancha qismi o'zini o'zi bandligini ta'minlayotganligiga qaratamiz. Buni quyidagi rasmda ko'rish mumkin (2-rasm).



2-rasm: O'zini o'zi band qilgan aholining o'sish dinamikasi³

Rasmdan ko'rinib turibdiki, 2021-yilning 1-oktyabr holatida O'zbekistonda o'zini o'zi band, deb ro'yxatdan o'tganlar soni 1 064 895 ming kishini (bir million oltmish to'rt ming sakkiz yuz to'qson besh kishi) tashkil etgan. 2022-yilda 16 fevral holati bo'yicha aholining 1 324 031 (bir million uch yuz yigirma to'rt ming o'ttiz bir kishi) ming kishi o'zlarining bandliklarini ta'minlashgan hamda hozirda 2023-yil 1-may bo'yicha 1 370 288 ming kishi rasman o'zini o'zi band etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, O'zbekistonda mustaqillik yillarida juda ko'p choralar ko'rilishiga qaramasdan bandlik muammosi saqlanib qolmoqda. Bunga kuchli ta'sir ko'rsatgan omillar, fikrimizcha, qo'ydagilardan iboratdir:

Birinchidan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi. Oldin faoliyat ko'rsatgan ko'pgina yirik korxonalarning faoliyati to'xtaganligi.

² O'zbekiston Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

³ O'zbekiston Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



Ikkinchidan, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish natijasida resurslardan, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligining oshganligi.

Uchinchidan, davlat ro'yxatidan o'tmasdan norasmiy ravishda tadbirkorlik faoliyat turlari (oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, shirinliklar va milliy taomlar, meva va sabzavotlarni konservatsiya qilish, uyda non yopish, oziq-ovqat mahsulotlarini sotish, mebellarni tayyorlash va ta'mirlash, qurilish materiallari, avtomobillar, santexnika va boshqa turli maishiy xizmat texnikalarini ta'mirlash, kosibchilik, tikish-bichish kabi xizmatlar va boshqalar) bilan shug'ullanish kuzatildi.

To'rtinchidan, fan va texnika taraqqiyoti tasiri ostida mehnat unumdorligining o'sishi natijasida ko'pgina korxonalarda ish o'rinlarining qisqarishining ro'y berishi.

Beshinchidan, munosib haq to'lanadigan doimiy ish o'rinlarining yetishmasligi, yoshlarning, jumladan, oliy ma'lumotli yoki ish stajiga ega bo'lmagan yoshlarning ishga joylashishdagi qiyinchiliklar.

Oltinchidan, qishloq joylarda yaxshi haq to'lanadigan doimiy ish o'rinlarining mavjud bo'lmaganligi sababli yoshlarning xorijga mehnat qilish uchun chiqib ketishi kabilarni kiritish mumkin. Ushbu muammolarning ta'sirini kamaytirish uchun aynan o'zini o'zi ish bilan ta'minlash masalasi o'ta dolzarb bo'lib turibdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib aholi bandligi va ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha qo'yidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bularning ayrimlari:

O'zini o'zi band qilish bo'yicha aholining hali ko'pchilik qismi yetarlicha ma'lumotga ega emasligi va bu borada amaliy ishlar ko'lamini oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O'zini o'zi band qilgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan soliq summasini o'sha o'zi ro'yxatdan o'tgan hududda qoldirib, aynan usha hududning biror bir ijtimoiy yechimini topishga sarflash yoki ushbu sohani ommalashtirish maqsadida reklama va ijtimoiy tarmoqlarda uning foydali jihatlari haqidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi video, rasmlarni berib borishni yo'lga qo'yish lozim.

Respublikada olib borilayotgan norasmiy sektor obyektlarini legallashtirish jarayonlarini davom ettirgan holda ushbu rasmiy sektorga o'tkazilgan xo'jalik subyektlariga rasmiylashtirishda duch keladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha hududiy mehnat organlarida malakali mutaxassislardan iborat maslahat berib borilishi va monitoringini yo'lga qo'yish ham maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2020-yildagi PQ-4742-son "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/docs/4849607>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-62-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. Ильина Л.А. Самозанятость как фактор стабилизации рынка труда / Л.А. Ильина, С.В. Ильин // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2020. – № 4. – С. 143–146.
5. Абрамова Е.А. Самозанятость как инструмент сокращения безработицы в период кризиса / Е.А. Абрамова // Экономика и бизнес: теория и практика. — 2020. – № 11-1 (69). – С. 9–12.
6. Николенко Н.А. Самозанятость граждан предпенсионного возраста в условиях формирования цифрового общества / Н.А. Николенко // Вестник Удмуртского университета. Социология. Политология. Международные отношения. –2020. – Т. 4, № 1. – С. 35–42.
7. Дракина И.К. Самозанятость молодых специалистов в области декоративно-прикладного искусства и народных промыслов / И.К. Дракина // Мир науки, культуры, образования. –2020. – № 3 (82). – С. 205–206.
8. Пациорковский В.В. Самозанятость — ответ части экономически активного населения на кризис стандартных трудовых отношений / В.В. Пациорковский // Народонаселение. –2020. –Т. 23, № 1. – С. 88–103.
9. Hipple, Steven F. «Self-employment in the United States.» Monthly Labor Review (2010): 17-32. Web.
10. Самитов М.Р. "САМОЗАНЯТЫЕ", Инвестиционное проектирование, Оценка инвестиций 1 (15) 2020 | www.esm-invest.com
11. Скруг В.С. Возможности и проблемы легализации самозанятых в условиях цифровой экономики // Экономика труда. –2020. –Том 7. –№ 11. –С. 979-992. doi: 10.18334/et.7.11.111124
12. Хишаева Ж.Т. Состояние рынка труда в Казахстане и развитие самозанятости населения // Экономика Центральной Азии. –2020. –Том 4. –№ 2. –С. 101-112. – doi: 10.18334/asia.4.2.110284.
13. Pardayev M., Pardayev O., Pardayeva O. "O'zini o'zi band qilish yo'llari". Samarqand: SamISI. –2020. –72 bet.
14. http://toshvil.uz/oz/tadbirkorlikni_rivojlantirish_va_kasbga_tayyorlash_orqali_kambag'allikni_kamaytirish_choralari_belgi
15. <https://lex.uz/ru/docs/4849607?otherlang=1>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tele.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.